



INTERNET JOURNALISM IN THE UZBEK SEGMENT: THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF THE INDUSTRY

Sharof Rashidov

PhD student

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

E-mail: sharofr58@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: internet journalism, information technologies, online media, internet resources, globalization, media, digitization, internet newspapers, electronic media, Web 2.0, blog.

Received: 31.03.25

Accepted: 02.04.25

Published: 04.04.25

Abstract: The article is dedicated to the dynamic development of internet journalism in Uzbekistan over the past few decades. In the context of globalization and rapid progress in information technologies, the internet has become the primary channel for the distribution of news and information in Uzbekistan. The stages of the internet's emergence in the country, starting from the 1990s, and the formation of national internet journalism are examined. Special attention is given to the first internet resources, such as Uznews.net and Gazeta.uz, as well as the emergence of new formats for online media, including internet newspapers and TV channels. The article analyzes the growth of internet popularity in Uzbekistan, the increase in the number of users, and the creation of a new information space where traditional media and online resources interact and complement each other. In conclusion, the role of internet journalism in modern communications is emphasized, as well as its significance for the development of the information society in Uzbekistan.

O'ZBEK SEGMENTIDAGI INTERNET JURNALISTIKASI: SOHANING RIVOJLANISH TARIXI

Sharof Rashidov

tayanch doktorant

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O'zbekiston

МАQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Internet journalistika, axborot texnologiyalari, onlayn-media, internet resurslari, globallashuv, ommaviy axborot vositalari, raqamlashtirish, internet gazetalari, elektron ommaviy axborot vositalari, Web 2.0, blog.

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistondagi internet-jurnalistikaning so‘nggi o‘n yilliklardagi dinamik rivoji muhokama qilinadi. Globallashuv va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida Internet O‘zbekistonda yangiliklar va ma’lumotlarni tarqatuvchi asosiy kanalga aylanib bormoqda. 1990-yillardan boshlab mamlakatda internetning paydo bo‘lish bosqichlari va milliy internet-jurnalistikaning shakllanish jarayonlari tahlil qilingan. Maqolada uzoq yillardan beri faoliyat yuritib kelayotgan Uznews.net va Gazeta.uz kabi birinchi internet-resurslar, shuningdek internet gazetalari va telekanallar kabi yangi formatdagi onlayn OAVlar hamda ularning rivoji muhokama qilingan. Maqolada O‘zbekistonda internetning ommalashuvi, foydalanuvchilar sonining o‘sishi va an’anaviy OAV va onlays-resurslar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni tuzish jarayonlariga e’tibor qaratilgan. Maqolada internet-jurnalistikaning zamonaviy aloqalardagi ahamiyati va O‘zbekistonda axborot jamiyatini rivojlantirishdagi roli ta’kidlanadi.

ИНТЕРНЕТ-ЖУРНАЛИСТИКА В УЗБЕКСКОМ СЕГМЕНТЕ: ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛИ

Шароф Рашидов

базовый докторант

Джиззакский государственный педагогический университет

Джиззак, Узбекистан

E-mail: sharofr58@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: интернет-журналистика, информационные технологии, онлайн-СМИ, интернет-ресурсы, глобализация, СМИ, цифровизация, интернет-газеты, электронные СМИ, Web 2.0, блог.

Аннотация: Статья посвящена динамическому развитию интернет-журналистики в Узбекистане за последние десятилетия. В условиях глобализации и быстрого прогресса информационных технологий интернет становится основным каналом для распространения новостей и информации в Узбекистане. Рассматриваются этапы появления интернета в стране, начиная с 1990-х годов, и становление национальной интернет-журналистики. Особое вниманиеделено первым интернет-ресурсам, таким как Uznews.net и Gazeta.uz, а также появлению

новых форматов онлайн-СМИ, включая интернет-газеты и телеканалы. Статья анализирует рост популярности интернета в Узбекистане, увеличение числа пользователей и создание нового информационного пространства, где традиционные СМИ и онлайн-ресурсы взаимодействуют и дополняют друг друга. В завершение, подчеркивается роль интернет-журналистики в современных коммуникациях, а также ее значимость для развития информационного общества в Узбекистане.

Internet-jurnalistikasi so‘nggi o‘n yilliklarda dunyo bo‘ylab dinamik rivojlanish jarayonidan o‘tmoqda va O‘zbekiston bundan istisno emas. Globalizatsiya va axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanishi sharoitida internetning asosiy axborot va yangiliklar tarqatish kanali sifatida ahamiyati tobora ortib bormoqda. O‘zbek internet-segmenti har yili o‘sib borib, tobora ko‘proq foydalanuvchilarni jalg qilmoqda va jurnalistlar hamda media-kompaniyalar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

O‘zbekistonda internetning yaratilishiga qadamlar 1990-yillar oxiri — 2000-yillar boshlarida qo‘yilgan. Shu davrda internet hali ko‘pchilik fuqarolar uchun mavjud emasdi, va ommaviy axborot vositalari asosan an'anaviy aloqa kanallarini, masalan, televideniye, radio va bosma nashrlarni ishlatardi.

O‘zbekistonda 1995-yil 29-aprelda .uz domeni ro‘xatga olingan va shundan so‘ng 1996-2022-yillarda ilk marotaba Uz.Report.com nomli internet resursi ishga tushadi. Natijada asta-sekin bosma va elektron OAV ommalasha boshlaydi hamda 2007-yildan so‘f internet nashrlar yuzaga keladi va O‘zbekistonda internet OAVning qonunchilik bazasi shakllanadi.

O‘zbekistonda internet jurnalistika paydo bo‘lgan ilk davrda uning istiqboli mavhum tuyulgan. O‘zbekistonda tom ma’nodagi internet jurnalistika 2000-yillar o‘rtalaridan shakllana boshlagan. Bu albatta, texnik taraqqiyot bilan bog‘liq jarayon edi. O‘sha paytlarda internet jurnalistikaning o‘zbek segmentida yangiliklar saytlari sanoqli bo‘lgan. Ularning yarmidan ko‘prog‘i muxolif saytlar bo‘lgan.

2000-yillarda mamlakatda birinchi yangiliklar saytlar va internet-resurslar, masalan, «Uznews.net» va «Gazeta.uz» paydo bo‘ldi, ular an'anaviy OAVni almashtirish yoki qo‘sish maqsadida ish boshladidi. Ushbu resurslar O‘zbek internet bozorida asosiy o‘yinchilarga aylandi, o‘quvchilarga yangiliklar, tahlil va turli maqolalar taqdim etdi.

O‘zbekistonda ilk milliy internet festivali 2005 yili o‘tkazilgan. Unda xabar nashrlari yo‘nalishida hozirgi Uzreport TV asosi bo‘lgan uzreport.com sayti 2-o‘rinni egallagan. Birinchi va uchinchi o‘rinni egallagan saytlar (security.uz, darvoza.uz) hozirda faoliyat yuritmeydi.

Hozirda Internet jurnalistika O'zbekiston ommaviy axborot vositalari ichida tezkorligi bo'yicha birinchi, auditoriyasining ko'pligi va ta'sir doirasining kengligi bo'yicha televiedenedan so'ng ikkinchi o'ringa chiqib oldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmatining isloh qilinishi va samarali faoliyat yuritishi onlayn jurnalistikaga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasining internetda jonli olib berilishi jurnalistika tarixida katta voqeа bo'ldi. Ilk bor mana shunday oliy darajadagi tadbir o'sha vaqtning o'zidayoq xabar saytlarida yoritildi, tahlil qilindi, butun dunyodan munosabatlar bildirildi. Avvallari bunday uchrashuvlar o'tib bo'lgandan so'ng bir qancha "qaychilash"lardan so'ng efirga uzatilardi. Ba'zi tadqiqotchilarning hisobiga ko'ra, ushbu murojaatnomani internetda 4 000 000 kishi kuzatdi.

Zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalari shiddatli rivojlanishi barobarida axborot almashinuvi tezligi misli ko'rilmagan darajaga yetdi. Mustaqillik davrida O'zbekistonda internet tarmog'inining an'anaviy OAV olamiga kirib kelishi bosqichma-bosqich amalga oshdi.

An'anaviy tarzda faoliyat yuritayotgan bosma nashrlar (moliyaviy imkoniyati yetarli bo'lgan bir qator gazeta va jurnallar) o'z elektron nusxalarini tarqata boshladi. Teleradio kanallari o'z ko'rsatuv va eshittirishlarini ayni vaqtda internet orqali tarqatish tajribasini qo'llay boshladi.

2005-2007-yillarni o'z ichiga olgan mazkur dastlabki bosqich tajribalari internet tarmog'idan samarali foydalanish an'anaviy OAV imkoniyatlarini yanada kengaytirishini ko'rsatdi.

Imkoniyat kengayishi va kuchayishi an'anaviy OAVning axborot olish va tarqatish samaradorligida ayniqsa namoyon bo'ldi. Bosma nashrlardan tortib teleradiojurnalistika mazkur yangilikni o'z faoliyatida keng joriy eta boshlashi yana bir jiddiy yangilikni – dunyo miqyosida axborotni istalgan manzilga yetkazish imkoniyatini keltirib chiqardi.

O'zbekiston Respublikasida 2007-yil yanvar oyidan faqat internetda faoliyat yuritadigan alohida nashrlar paydo bo'la boshladi. Bosma nashrlardan, an'anaviy tele-radiokanallardan butkul mustaqil ravishda faoliyat yuritadigan elektron OAV yaratish ishlari avj oldi. Ya'ni internet ommaviy axborot vositalari hisoblanmish internet tele va radiokanallar, internet gazetalar va hokazo internet nashrlar soni ko'paya borib, ular alohida onlayn axborot makonini tashkil eta boshladi.

Bu – milliy media makonda yangi voqelik, yangi reallik edi.

Internet gazetalar ixtisoslashuvi masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Veb texnologiyalar imkoniyati sifatida vujudga kelgan Veb 2.0 (Web 2.0) va Blog (Blog) tizimi juda tez ommalashdi. Ayrim blog saytlar ayrim rasmiy axborot tarqatuvchi saytlarga qaraganda tezkor ishlayotganidan kelib chiqib Nyus 2.0 (News.2) nomi bilan atala boshlandi. Nyus 2.0 kelajakda jurnalistika darajasiga ko'tarilish-ko'tarilmasligi alohida masala, biroq bundan qat'i nazar blog tizimiga

asoslangan yangidan yangi saytlar ko‘payib borayotgani fakt (www.binafsha.uz, www.Itishnir.uz, www.blog.fonus.uz, www.blog.uzinfocom.uz, www/ayol.uz kabi saytlar singari).

Ayni vaqtida O‘zbekistonda 1,4 mingdan ortiq OAV faoliyat yuritayotgan bo‘lib, ularning 63 foizi nodavlat hisoblanadi. Xususan, 2007-yilda O‘zbekistonda Internetdan foydalanuvchilar soni qariyb 1 million kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilning yanvar holatiga ko‘ra bu ko‘rsatkich 30,1 millionga yetgan.

Oldingi davrlarni olib qarasak, an’anaviy bosma nashrlar, gazeta va jurnallar, shuningdek, tele-radio kanallar asosan respublikamiz hududida faoliyat olib borgan. Ular tarqatgan ma’lumotlar, xabarlar, fakt va raqamlar deyarli O‘zbekiston sarhadlaridan tashqariga chiqmagan (Toshkent xalqaro radiosidan tashqari) bo‘lsa, so‘z yuritayotgan yangi media makonning bosh xususiyati milliy axborotning hech bir to‘siqsiz dunyoga tarqab ketishi bilan xarakterlana boshladi.

Internet yordamida har qanday OAV (xoh an’anaviy, xoh elektron) endilikda xorijiy media makonga to‘g‘ridan to‘g‘ri chiqish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Biroq bunday qulayliklar o‘ziga yarasha kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqaradi. Chunonchi, Xorazm yoki Surxondaryo, Sirdaryo yoki Qoraqalpog‘istonning «chekka tumanlari doirasida tarqatiladigan gazeta» degan tushuncha yo‘qolib bordi, chunki istalgan viloyat yoki tuman gazetasi materiallari istalgan daqiqada internet tarmog‘i orqali butun dunyoga tarqalishi oddiy holga aylanib ulgurdi.

Natijada, keyingi yillarda global tarmoq orqali respublika gazetalari o‘quvchilarining geografiyasi birmuncha kengaydi.

Endilikda O‘zbekistonda onlayn jurnalistika, internet jurnalistika, internet gazeta, internet-TV, onlayn-radio kabi tushunchalar hech kimga yangilik bo‘lmay qoldi.

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligidan rasman ro‘yxatdan o‘tgan internet OAV miqdori 2012-yilda qariyb 200 tani tashkil etgan bo‘lsa, mazkur ko‘rsatkich 2016-yilda 360 taga yetgan. Bundan ma’lum bo‘ladiki respublikamizda internet gazetalar rivojlanish, shakllanish va takomillashish bosqichlaridan o‘tdi.

2023-yilga kelib O‘zbekistonda 2140 ta yoki 2016-yilga nisbatan 626 taga ko‘p ommaviy axborot vositasi faoliyat yurita boshladi. Ularning 65 foizi nodavlat media vositalaridir. An’anaviy nashrlar bilan birga internet nashrlar ham jadal rivojlanib, ularning soni 745 taga yetdi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, 2025 yilning yanvar holatiga O‘zbekistonda 32 million Internet foydalanuvchisi va 20 milliondan ortiq ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi ro‘yxatdan o‘tgan. Raqamli texnologiyalar vazirligi axborotida qayd etilishicha, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari umumiy internet foydalanuvchilarining 30 foizini tashkil etadi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra O‘zbekistonda:

1. Facebook’da - 4,7 mln
2. Instagram’da - 3,7 mln

3. LinkedIn'da - 288 ming
4. Telegram'da - 18 mln
5. Odnoklassniki'da - 6,7 mln
6. Twitter'da - 51,6 ming
7. BКонтакте'da - 2,6 mln

foydalananuvchi mavjud. Ularning 53,9 foizini yoshlar tashkil etadi.

Bugun internetning o‘zbek segmentida eng ommaviy saytlar daryo.uz va kun.uz yangilik saytlaridir. 2018-yil 13-fevral holatiga ko‘ra, daryo.uz saytiga bir kunda 349 920 kishi (2 719 266 ta sahifa o‘qilgan), kun.uz saytiga esa 328 412 kishi tashrif buyurgan (1 526 726 ta sahifa o‘qilgan).

O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi muassisligidagi xabar.uz sayti yangi tashkil etilganiga qaramay, kuniga 40000 kishilik auditoriyani yig‘a oldi. Saytda davlat va jamoat tashkilotlari haqida tanqidiy, tahliliy materiallar muntaзам e’lon qilib borilmoqda.

O‘zbekiston Milliy axborot agentligining uza.uz sayti TASS va O‘zTAGdan qolib ketgan eski qoliplardan voz kechib, maqolalarni erkin tarzda berayotgani, fikr aytuvchilar uchun minbar-platforma yaratgani, tanqidiy maqolalarni qisqartirmasdan chop etayotgani sababli auditoriyasi ham kengaydi.

Ma’lumki, butun dunyoda bosma ommaviy axborot vositalari qiyin davrlarni boshdan kechirmoqda. Gazeta va jurnal tirajlari har yili tushib bormoqda. Aksincha ularning elektron versiyasiga talab ortmoqda. Har haftada 3,2 million nusxada chop etilgan AQShning eng mashhur yangiliklar jurnali “Newsweek” 2013 yildayoq to‘liq elektron variantga o‘tdi, bosma nashri tugatildi.

Internet jurnalistikasi soxasida 2024-yilda Jizzax viloyati miqiyosida faoliyat ko‘rsatayotgan 20 dan ziyod matbuot, radio va televiedeniya tahririylatlari, internet saytlari, shuningdek ijtimoiy tarmoqlardagi faol sahifalar aniq, xolis va tezkor axborot ehtiyojini ta’minalashga katta hissa qo‘shmoqda. Bundan tashqari, ayni vaqtda 40 dan ziyod davlat idoralari va mahalliy hokimliklar tarkibida axborot xizmatlari faol ishlamoqda.

1993-yildan buyon har yili 27-iyun O‘zbekistonda Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni sifatida keng nishonlanadi. Shu munosabat bilan har yili O‘zbekistonda OAV xodimlari uchun ko‘rik tanlovlari bo‘lib o‘tadi. 2024 – yilgi “Yilning eng faol jurnalisti” tanloving viloyat bosqichi g‘oliblari orasida internet jurnalistikasi yo‘nalishida www.jizzaxmews.uz sayti, matbuot yo‘nalishida “Jizzax haqiqati” gazetasi bo‘lim muharriri Asad Mustafoyev, radio yo‘nalishida “Jizzax” radiokanalni muharriri Sayyora bo‘ranova, televiedeniye bo‘yicha “O‘zbekiston” kanalining viloyat muxbiri Dilmurod Abdurahimovlar g‘olib bo‘ldilar.

2024-yilgi tanlovda 52 nafar ishtirokchining ijodiy ishlari ko'rib chiqilgan. O'gan yillardagiga nisbatan 2024-yili internet jurnalistikasi bo'yicha talabgorlar soni sezilarli darajada ortgan va yangi nomlar yuzaga chiqqan.

Xulosa o'mida O'zbekistonidagi barcha bosma ommaviy axborot vositalari ham hozirdanoq elektron versiya va doimiy yangilanadigan saytni yo'lga qo'yishmasa, ertaga auditoriyani yo'qotib qo'yishlari hech gap emas. Bu borada "Darakchi" va "Hordiq" gazetalari oldinroq harakat qilgan edilar. Hozirda ushbu gazetalarning kunlik o'quvchilari soni 20000 dan oshgan. Gazetalarning sayti uning bosma versiyalari uchun reklama vazifasini ham bajaradi. Shuningdek, gazetaga sig'magan yoki chop etilguncha eskirib qoladigan istalgan maqolani saytda e'lon qilish mumkin.

So'nggi oyлarda "Xalq so'zi" gazetasining sayti ham ancha jonlandi. Unda kundalik xabarlar bilan birgalikda o'tkir tanqidiy maqolalar, mushohadaga chorlovchi materiallarning muntazam e'lon qilib borilishi sayt va gazetaning ommalashuviga sabab bo'lmoqda (kuniga 3500 kishi). "Uzbekistan Today", "O'zbekiston ovozi" gazetalarining onlayn versiyalarini ham kuniga 1000-1500 foydalanuvchi kuzatmoqda.

Hozirda O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida internet jurnalistika taraqqiyoti borasida Qozog'istondan so'ng ikkinchi o'rinda turibdi. Qozog'istonda internet foydalanuvchilar umumiy aholining 56 foizini tashkil etadi. Mamlakat internet segmentida yangiliklar saytlari ommaviy bo'lib, eng katta xabar portali tengrinews.kz saytiga kuniga 800 000 dan ortiq foydalanuvchi tashrif buyuradi.

Kelajakda o'zbek segmentidagi internet OAV nazariy jihatdan jurnalistikaning uchta asosiy vazifasi hisoblangan – xabar tarqatish, tahlil qilish va ta'sir o'tkazish funksiyalarini o'z zimmasiga to'liq oladi va milliy media makondagi yetakchilik pozitsiyasini yanada mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aminova D. Madaniyatlararo kommunikatsiya kontekstida internet jurnalistika taraqqiyoti. International scientific-methodological electronic journal. 2023, No 3 (50), 119-133.
2. Alimov B., «Yangi media ta'lim markazi» NNT direktori: <https://kun.uz/uz/news/2023/10/12/ozbek-segmentidagi-internet-jurnalistikasi-soha-qanday-rivojlandi-va-kelajakda-nima-kutiladi?>
3. "Экономика и социум" №9(124) 2024 www.iupr.ru 260 qayd
4. Ziddiyatl statistika: O'zbekistonda ayollar ko'proq internetdan foydalanishadimi yoki erkaklar?. <https://uz24.uz/uz/articles/internet-11-1>
5. Tolaliyev D., Ziyouz.com portalı muharriri: <https://uzhurriyat.uz/2018/02/21/o-zbekistonda-internet-jurnalistika/>
6. Soliyev E. Matbuot va OAV xodimlari kuni munosabati bilan viloyat hokimining bayram tabrigi // Jizzax haqiqati. - 2024.-26-iyun, № 49-50 (6510-6511).
7. Norbekova M. OAV xodimlari sharaflandi // Jizzax haqiqatii. - 2024.-13-iyul, №55 (6516).